
NAVBATDAGI QABUL BO'LIB O'TDI

Sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilayotgan qabullar xalqning dardini eshitish, ularning muammolarini hal etishda shak-shubhasiz, kutilgan natijalarni bermoqda. Zero, Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak". Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq tuman halq qabulxonasi binosida tuman hokimi va sektor rahbarlarining qabuli bo'lib o'tdi.

Fuqarolar sog'ligini tiklashda, ish bilan ta'minlashda, tadbirkorlik faoliyatini boshlash maqsadida yer-joy, moddiy yordam ajratish, subsidiya asosida uy-joy olishda ko'maklashish yuzasidan murojaat qilib, tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan qonun doirasida huquqiy tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, murojaatlar yuzasidan tegishli tashkilotlar rahbarlariga ijobiy hal etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

2022-11-03 15:33:43